

MAIN FACTORS CONTRIBUTING TO THE NEGATIVE CONSEQUENCES OF MEASLES

¹Bazarova G.R.

²Saidov A.B.

²Sayfutdinova Z.A.

²Zaynutdinova A.I.

¹Alfraganus university, Tashkent, Republic of Uzbekistan

²Tashkent Medical Academy, Tashkent, Republic of Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15349910>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 02nd May 2025

Online: 03rd May 2025

KEYWORDS

Measles disease, negative
consequences, childhood
morbidity, disease
prevention.

ABSTRACT

In recent years, measles has been recorded as a rather alarming situation that leaves serious complications in the future, and monitoring the implementation of serious preventive measures against this disease by medical personnel is of great importance. It is also worth noting that preventive vaccination to prevent the disease is the main criterion for preventing serious complications from this disease. To achieve this, it is very important that all children receive a two-dose preventive vaccination.

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ НЕГАТИВНЫМ ПОСЛЕДСТВИЯМ КОРИ

¹Базарова Г.Р.

²Саидов А.Б.

²Сайфутдинова З.А.

²Зайнутдинова А.И.

¹Alfraganus университет, Ташкент, Республика Узбекистан

²Ташкентская медицинская академия, Ташкент, Республика Узбекистан

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15349910>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 02nd May 2025

Online: 03rd May 2025

KEYWORDS

Заболевание корью,
негативные
последствия, детская
заболеваемость,
профилактика
заболеваний.

ABSTRACT

Корь в последние годы фиксируется как достаточно тревожная ситуация, оставляющая серьезные осложнения в будущем, и большое значение имеет контроль за выполнением серьезных профилактических мер против этого заболевания перед медицинским персоналом. Также стоит отметить, что профилактическая вакцинация для предотвращения заболевания является основным критерием предотвращения серьезных осложнений после этого заболевания. Для этого очень важно, чтобы все дети прошли двухдозную профилактическую прививку.

QIZAMIQ KASALLIGINING SALBIY OQIBATLARIGA SABAB BO'LUVCHI ASOSIY OMILLAR

¹Bazarova G.R.

²Saidov A.B.



²Sayfutdinova Z.A.

²Zaynutdinova A.I.

¹Alfraganus university, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

²Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15349910>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 02nd May 2025

Online: 03rd May 2025

KEYWORDS

Qizamiq kasalligi, salbiy oqibatlar, bolalar kasallanishi, kasallikni oldini olish.

ABSTRACT


Qizamiq kasalligining oxirgi yillarda qayd etilishi biroz taxlikali holat bo'lib, keyingi paytlarda og'ir asoratlarni qoldirishi, tibbiyot xodimlarini oldidagi ushbu kasallik bilan jiddiy oldini olish chora-tadbirlarini bajarilishini nazorati katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek kasallikni oldini olishdagi profilaktik emlash ishlarini jadal olib borilishi, ushbu kasallikdan keyingi og'ir asoratlarni oldini oluvchi bosh mezon ekanligi e'tibor doirasidadir. Buning uchun barcha bolalarni ikki dozali profilaktik vaksinatsiyadan o'tishi juda zarur hisoblanadi.

Kirish. Yuzlab yillar davomida qizamiq odamlarga ma'lum bo'lgan eng yuqumli va halokatli yuqumli kasalliklardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, qizamiqqa qarshi emlanmaganlar uchun. Go'daklar, bolalar, homilador ayollar va surunkali kasalliklari bo'lgan odamlar uchun qizamiq bugungi kunda ham juda xavfli kasallik hisoblanadi.

Dolzarbli. Bugungi kunda qo'shni davlatlarda qizamiq kasalligi ko'payishini inobatga olgan holda va migrasiya kuchayib chetga borib kelgan qizamiqqa qarshi emlanmagan aholi, bolalar orasida qizamiq bilan kasallanish ro'yxatga olinishi bugungi kunnin dolzarb muammolaridan biridir.

Maqsad. Qizamiq kasalligining kelib chiqishi va boshqa yuqumli toshmali kasalliklardan farqini ajratishni tavsiflashdan iborat.

Qizamiq - bu o'tkir yuqumli virusli kasallik bo'lib, u tana haroratining ko'tarilishi, umumiy intoksikatsiya, yuqori nafas yo'llarining zararlanishi, teridagi dog' va papulyoz toshmalar, ko'z shilliq qavatining yallig'lanishi bilan tavsiflanadi. Bolalar kasalliklarining o'tkir infeksiyalari qatorida qizamiq bilan kasallanish darajasi bo'yicha birinchi o'rinlardan birini egallaydi. U hayotning dastlabki ikki yilidagi bolalarda eng og'ir kechadigan kasallik hisoblanadi. Bolalarda qizamiqning kelib chiqishining asosiy sababi kasal odam bilan aloqa qilishdir. Kasallikning dastlabki davrida - kataral va toshma davrining dastlabki bir necha kunida infeksiya manbai eng yuqumli hisoblanadi. Qizamiq toshishining to'rtinchi kundan boshlab (1-2-rasmlar), odam atrofdagilarga xavf tug'dirmaydi. Infeksiya havo tomchi orqali yuqib, virus yo'talganda, aksa urganda, gaplashganda, qichqirganda, shilimshiq va shilimshiq tomchilari bilan birga atrof muhitga tatqaladi. Havo oqimi bilan virus juda uzoq joylarga - qo'shni xonalarga va yo'laklar orqali hatto qo'shni uylarga tarqalishi mumkin. Ba'zi narsalar orqali, uchinchi shaxslar kabi, infeksiyani yuqtirish odatda sodir bo'lmaydi - virus tashqi muhit omillariga ta'sir qilishdan oldin juda beqaror.



1-rasm. Qizilcha, Suvchechak va Qizamiq kasalliklarida toshmalarning bir-birlaridan farqlari.

2-rasm. Qizamiq kasalligida toshgan toshmalarning ko'rinishi.

Materiallar va usullar. Jahon sog'likni saqlash tashkiloti (JSST) ning ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda dunyo bo'ylab rasman qayd etilgan 322 714 qizamiq kasalligidan 60 941 tasi Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida qayd etilgan. Bu ushbu hududlarda qizamiqning sezilarli darajada tarqalishini ko'rsatadi va bunday jiddiy kasallikning oldini olish uchun profilaktik emlash muhimligini ta'kidlaydi. Bugungi kunda butun dunyo bolalarining aksariyati emlangan. Shunga qaramay, emlash kam o'tkazilayotgan yoki aholining emlashga bo'lgan talabi kamayib borayotgan hududlarda yangi epidemiyalar ushbu kasallik qanchalik halokatli bo'lib qolayotganini ko'rsatmoqda. Masalan, Kongo Demokratik Respublikasida 2018 - 2020 yillarda Ebola kasalligi tarqalib, 2 299 kishi hayotdan ko'z yumdi. Xuddi shu davrda qizamiq tarqalishidan 7800 kishi, ya'ni uch baravar ko'p odam o'ldi. 2022 yilda butun dunyo bo'ylab qizamiqdan o'lim darajasi 2021 yilga nisbatan 43 foizga oshgani COVID-19 pandemiyasi davrida emlash darajasining pasayishiga olib keldi. Har kuni qizamiqdan 373 kishi vafot etadi. JSST Yevropa mintaqasida qizamiq holatlari hisobotida keltirishicha, 2023-yil iyundan toki 2024-yil may oyigacha qizamiq bilan kasallanishlar quyidagicha bo'lib, shundan, Qozog'istonda 40615 holat, Ozarbayjonda 30217 holat, Rossiya Federatsiyasida 21261 holat, Qirg'izistonda 17182 holat, Ruminiyada 8888 holat, Turkiyada 3981 holat,



O'zbekistonda 1973 holat, Bosniya va Gersegovinada 1154 holat, Angliyada 1087 holat, Armanistonda 781 holat kuzatilgan. 12 oylik davrda qizamiq 49 mamlakatda qayd etilgan, bu esa 92% ni tashkil etadi. Kasallikni oldini olishda, immunitetni ta'minlash uchun bolalarga vaksinaning ikki dozasi olinishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Qizamiq keng tarqalgan kasallik kuzatilayotgan mamlakatlarda birinchi doza odatda 9 oyligida, boshqa mamlakatlarda esa 12-15 oyligida o'tkaziladi. Ikkinchi dozani keyingi bosqichlarda, odatda 15-18 oyda yuborilishi kerak.

Natijalar. Qizamiq boshqa viruslarga, jumladan, COVID-19, gripp va chechak viruslariga qaraganda ancha yuqumlidir. Qizamiq kasalligiga chalingan har bir bemordan 12 dan 18 nafargacha odamga kasallik yuqadi. Umuman olganda, qizamiq grippga qaraganda 12 baravar yuqumli, Ebola kasalligiga qaraganda olti baravar yuqumli va COVID-19 yoki chechakka qaraganda ikki baravar yuqumli. Shu bois qizamiq epidemiyasi, ayniqsa, emlash darajasi past aholi orasida tez tarqaladi. Qizamiq har bir inson uchun xavfli bo'lsa - da, bolalar orasida, ayniqsa besh yoshgacha bo'lgan emlanmagan bolalar uchun juda xavfli. Buning sababi, bolalarning immun tizimi va ichki a'zolari hamon shakllanishda davom etishidadir, bu esa bolalarni infeksiyalarga ham, kasallik asoratlari ham zaifroq qiladi. Har yili dunyoda qizamiq va ushbu kasallik oqibatida kelib chiqqan asoratlardan 136 000 ga yaqin odam vafot etadi. Ularning aksariyati – bolalardir. 2000-yillarning boshlarida, qizamiq vaktsinasi bugungi kundagidek keng qamrov olishidan oldin, har yili 761 000 ga yaqin bola qizamiq va uning asoratlaridan vafot etgan.

Qizamiqning eng ko'p uchraydigan alomatlari - yo'tal, burun oqishi va isitma. Ba'zan ahamiyatsiz bo'lib tuyuladigan bu alomatlar va qizamiqning boshqa asoratlari juda jiddiy bo'lishi mumkin. 2023 yilda JSSTning Yevropa mintaqasida qizamiq bilan kasallangan barcha bolalarning yarmidan ko'pi kasalxonaga yotqizilgan. Agar bolalarda yuqori harorat va toshma kabi alomatlar paydo bo'lsa, darhol shifokorga murojaat qilish juda muhim hisoblanadi. Kasallik bilan muvaffaqiyatli kurashish va asoratlarning oldini olish uchun tezkor tashxis qo'yish va davolash zarur. Davolanishning erta boshlanishi nafaqat bemorni, balki butun jamiyatni himoya qilib, infeksiya tarqalish xavfini kamaytiradi. Immun tizimi zaif bolalar, masalan, mavjud kasalliklar yoki to'yib ovqatlanmaslik tufayli eng katta xavf ostida. Ammo har bir insonda asoratlar paydo bo'lishi mumkin va kim ko'proq azob chekishi har doim ham oldindan aniq emas. O'rtacha va yuqori daromadli mamlakatlarda qizamiq bilan kasallangan har ming bolaning 70-90 nafarida quloq kasalliklari infeksiyasi, 80 nafarida ich ketish – disbakteriozning kuzatilishi, 10-60 nafarida esa pnevmoniya, ya'ni o'pka infeksiyasi paydo bo'ladi, bu ayniqsa yosh bolalar uchun xavfli bo'lishi mumkin. Qizamiq kasalligiga chalingan 1000 - 2000 nafar boladan birida infeksiyadan keyingi ensefalit (miyaning yallig'lanishi koma va o'limga olib kelishi mumkin) paydo bo'ladi. Garchi o'rtacha va yuqori daromadli mamlakatlarda qizamiqdan o'lim kamdan - kam uchraydi, ammo kasallikning o'limga olib kelishi hollari uchramoqda. Masalan, AQShda qizamiq bilan kasallangan har 1000 nafar boladan bittasi yoki ikkitasi vafot etadi. Kam daromadli mamlakatlarda xavf ancha yuqori: qizamiq bilan kasallangan har 1000 bolaga 30 dan 60 gacha o'lim to'g'ri keladi. Aholining ayrim guruhlarida, masalan, boshqa joyga ko'chirilgan odamlarning bolalari, qizamiq bilan kasallangan har ming bolaning 300 nafariga yaqini vafot etishi qayd etilgan.



Qizamiq immunitet tizimiga, shu jumladan immunologik xotirani olib tashlashga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu masalani o'rganish shuni ko'rsatadiki, qizamiq ilgari o'tkazilgan infeksiyalar va emlashlar haqidagi immunologik xotirani yo'q qilishi mumkin. Bu holat «immun amneziya» deb nomlanadi. Bu shuni anglatadiki, immunitet tizimi ilgari uchragan patogenlarga qarshi qanday kurashishni unutadi, bu esa organizmning boshqa infeksiyalarga sezgirligini oshiradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, qizamiq ilgari o'tkazilgan infeksiyalar haqidagi immunologik xotirani 30 foizga kamaytirishi mumkin. Bunday immunologik xotira yo'qolishi bir necha oy yoki hatto yillar davomida saqlanib qolishi, insonni ilgari himoyalangan kasalliklarga moyil qilishi mumkin. Bu qizamiq va uning immunitet tizimiga yetkazishi mumkin bo'lgan zararining oldini olishda emlash muhimligini ta'kidlaydi. Qizamiq bilan kasallangan bolalarda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan juda kam uchraydigan, ammo o'limga olib keladigan asoratlardan biri bu 100 000 ta holatda rivojlanadigan o'tkir sklerozlovchi panensefalitning o'ziga xos turidir. Bu virusli infeksiya organizmda nevrologik alomatlar paydo bo'lishidan oldin olti yoshdan sakkiz yoshgacha uyquda bo'ladi. Bunday alomatlar orasida harakat qobiliyatini yo'qotish (masalan, yurish qobiliyati), eshitish qobiliyatini yo'qotish, ko'rish qobiliyatini yo'qotish va miyaning shikastlanishi aniqlangan. Bir necha yil davomida kasallik odatda komaga va uning o'limiga olib keladi. Bu asoratni davolash yo'qligi sababli, qizamiqning oldini olishning yagona yo'li qizamiq bilan kasallanishning oldini olish -emlashdir. Aksariyat hollarda qizamiqning har qanday asoratidan, hatto kasallikning o'limigacha emlanmagan bolalar azob chekadi. 2023 yilda qizamiq bilan kasallangan besh yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 99 foizi qizamiq vaktsinasining tavsiya etilgan ikki dozasini olmagan. Bundan tashqari yana bir havfli holat – bu homilador ayollarning qizamiq bilan kasallanishi. Qizamiq homilador ayolga ham, homilaga ham katta xavf tug'diradi. Homilador ayollarda qizamiqning eng ko'p uchraydigan asorati pnevmoniya bo'lib, u har 100 homilador ayolning 18 tasida rivojlanadi. Yuzga yaqin homilador ayollardan to'rttasi kasallikka chalinib vafot etadi. Qizamiq o'sayotgan homilaga ham xavf tug'dirishi kuzatilib, qizamiq bilan kasallangan 100 nafar homilador ayolning 13 nafariga yaqin ayolda homiladorlik muddatidan oldin tugaydi. Ayollarga odatda homiladorlik paytida emlash tavsiya etilmaydi. Shuning uchun bu emlash homiladorlik boshlanishidan ancha oldin, bolalikda amalga oshirilishi ayniqsa afzaldir.

Xulosa. Demak, yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, chaqaloq yoshidagi bolalar qizamiqqa ayniqsa zaif, chunki ko'pgina mamlakatlarda bolalar kamida bir yoshga to'lgunga qadar qizamiqqa qarshi emlanmaydi. Bu qisman chaqaloqlarda immunitet tizimining eng zaif ekanligi hamda ularning ichki organlari hali ham shakllanish jarayonida ekanligi bilan bog'liq. Emlash - bolalarni ushbu xavfli kasallikdan himoya qilishning yagona usuli hisoblanadi. Qizamiqni yo'q qilishda erishilgan yutuqlarni xavf ostiga qo'yadigan epidemiyalarni tezda aniqlashga va ularga o'z vaqtida javob berishga barcha mamlakatlar tayyor bo'lishi juda muhim ", - dedi JSST Yevropa byurosi direktori Xans Klyuge. Dunyo bo'ylab aholini emlash darajasi oshmaguncha, bolalarlar qizamiq virusiga beriluvchan zaif aholi qatlami bo'lib qolaveradi. Kasallik tarqalishining oldini olish uchun aholining 95 foizini emlash zarur. Ammo butun dunyo bo'ylab bolalarning deyarli to'rttdan uch qismi, ya'ni 74 foizi vaktsinaning tavsiya etilgan ikki dozasini olgan. Qizamiq, parotit va qizamiqdan himoya



qiluvchi vaktsinaning birinchi dozasi 12 oylik bolaga yuborish kerak. Ikkinchi doza olti yoshda berilishi zarur. Shuning uchun emlashni o'tkazish muhim sanalib, kasallik asoratlarini oldini olish uchun sharoit yaratadi.

References:

1. Аликсеева Г. К. и др. Корь //Лечащий врач. – 2011. – №. 6. – С. 82-85.
2. Источник данных: Ежемесячные сводные данные по случаям заболевания, предоставленные странами-участницами в ЕРБ ВОЗ или через ECDC/TESSy данные по состоянию на 04 июля 2024 г.
3. Тимченко В. и др. Болезни цивилизации (корь, ВЭБ-моноклеоз) в практике педиатра. Руководство для врачей. – Litres, 2022.
4. Понежева Ж. Б. и др. Корь у взрослых //Эпидемиология и инфекционные болезни. Актуальные вопросы. – 2018. – №. 2. – С. 50-55.
5. Куприн А. Корь. – Litres, 2022.
6. Тихонова Н. Т. и др. Причины роста заболеваемости корью в России в период элиминации инфекции //Педиатрия. Журнал им. ГН Сперанского. – 2013. – Т. 92. – №. 1. – С. 9-14.
7. О кори и краснухе (по странам) <https://www.who.int/teams/immunization-vaccines-and-biologicals/immunization-analysis-and-insights/surveillance/monitoring/provisionalmonthly-measles-and-rubella-data>.
8. Эпидемиологические данные ВОЗ <https://www.who.int/europe/teams/vaccine-preventable-diseases-immunization/who-epidata>.
9. Эпидемиологическая справка ВОЗ <https://www.who.int/europe/teams/vaccine-preventable-diseases-immunization/who-epibrief>.
10. Minta AA, Ferrari M, Antoni S, et al. Progress Toward Measles Elimination — Worldwide, 2000–2022. MMWR Morb Mortal Wkly Rep 2023;72:1262–1268. DOI: <http://dx.doi.org/10.15585/mmwr.mm7246a3>.